



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUT REKTORINING**

BUYRUG'I

2025 yil "24" 01

49-son

Toshkent sh.

**“Farmatsevtika va biotexnologiya”
bo'yicha ilmiy-texnik kengashi
tarkibini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida” 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son va “Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son hamda “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatda tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida” 2022-yil 25-yanvardagi PF-14 son Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi “Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 133-son qaror bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi ilmiy-texnik kengashlar to'g'risidagi nizom”da belgilangan vazifalar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2024-yil 18-dekabr kuni “Tashkent Pharma Park” innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish farmasevtika klasteriga amalga oshirilgan tashrifi doirasida berilgan 56-son topshiriqlari ijrosini ta'minlash maqsadida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 16-yanvar kunidagi 16-sonli buyrug'ini ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Barcha prorektorlar, fakultet dekanlari, bo'lim boshliqlari va kafedra mudirlariga:

1.1. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 16-yanvar kunidagi 16-sonli buyrug'i ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

1.2. Oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar hamda tarmoqlar tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan “Scopus” va “Web of Science” xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalarida “Xirsh” indeksiga ega hamda yangi ilmiy yo'nalishlarda xalqaro darajada ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanayotgan nufuzli olim va mutaxassislar tanlab olinganligi, shuningdek, xorijlik olimlarni ekspert sifatida jalb etilib ilmiy-texnik kengashlar tarkibi shakllantirilganligi va shakllantirilgan a'zolar ishtirokidagi yig'ilishda ochiq ovoz berish yo'li bilan raislar saylanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

1.3. Farmatsevtika va biotexnologiya bo'yicha ilmiy-texnik kengashlarning yangilangan tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin..

2. Ushbu buyruq ijrosi nazoratini o'z zimmamga qoldiraman.

Asos: Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 16-yanvar kunidagi 16-sonli buyrug'i

Rektor



K.S.Rizayev